

Amir Shohmalik Amir Temur Mohir Sarkardasi

Mamashirinov Zafar Sobirovich

Uzbekiston Respublikasi Kurolli Kuchlar davlat muzeyi, Katta ilmiy xodimi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Temuriylar imperiyasini barpo etishga o'z hissasini qo'shgan sarkarda Amir Shohmalikning hayoti, sarkardalik faoliyati, uning o'z davriga mos bo'lgan bilimlarni egallash jarayoni, shu bilan birga dunyoni zabt etishga qaratilgan harbiy yurishlari, ayniqsa, Hindistonni bosib olishdagi harakatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Amir Shohmalik, Temuriylar davlati, Hindiston yurishi, 5 yillik yurish, 7 yillik yurish, Harbiy strategiya, Hazora.

1. Dolzarbli. Maqolada Amir Shohmalik hayotini tahlil qilish orqali harbiy yurishlar, strategik qarorlar, uning harbiy yurishlardagi ishtiroki va g'alabaga qo'shgan hissasini o'rganamiz. Hozirgi kunda buyuk sarkardalarni o'rganish ularning muvaffaqiyatli harbiy yurishlarini tahlil qilish yangi jang strategiyalarini o'rganish dolzarbdir.

Metodlar. Ushbu maqola qiyosiy-huquqiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, tarixiy, xolislik metodlari asosida yoritilgan bo'lib, unda O'rta asrlarning buyuk imperiyasi bo'lmish Temuriylar saltanatini barpo etishda jonbozlik ko'rsatgan sarkarda Amir Shohmalik hayoti yoritib berilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Amir Shohmalik hayoti:

Shohmalik, amir Shohmalik, amir G'iyosiddin Shohmalik (? — 1426.21.1, Xorazm, Mashhadda dafn etilgan) — Amir Temur va Shohrux saltanatida xizmat qilgan dongdor amir. Amir Temur uni yoshligidan tarbiyalagan, harbiy salohiyatni o'rgatgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Shohmalik dastlab Amir Temurning 5 yillik yurishi, aniqrog'i Takrit qal'asining olinishi (1393-yil) voqealari bayonida qo'shin boshlig'i sifatida eslatilgan; Muhammad Sultonni Hurmuz viloyatini egallashga jo'natganda esa, Shohmalik lashkar tarkibida hazorani (minglik qo'shin qismini) boshqargan.

Amir Shohmalik Amir Temurning Hindistonga yurishida faol qatnashgan lashkarning turli qismlarida tuman sardori bo'lgan. 1398-yil buyuk Temur safarga otlandi. Amirga Hind o'lkasidan ham xabarlar keldi. Dehli sultoni Feruzshoh mangulik dunyosiga ketganidan so'ng ro'y berayotgan hodisalar Sohibqironning g'azabini qo'zg'atdi. Hindistondagi ko'p shaharlar va viloyatlardagi butparast va otashparast kofirlar musulmonlarni chiqishtirmay qo'yibdilar ezib yancha boshlabdilar. Amir Temur qo'shini Dehliga yaqinlashar ekan, yo'l-yo'lakay barcha yerlarda haqqoniy tartiblar o'rnatilib, yomonlar jazolanib bordi. Nihoyat, 1398-yil 11-dekabrda Sohibqiron Dehli ostonalariga yetib keldi. Bu yerda katta jang bo'lishi kerak edi. Buyuk Amir 13-dekabrda shahzodalarni, amirlar, sarkardalar, saroy a'yonlari va o'n ming kishilik xos navkarlarini Feruzshoh maqbarasi oldiga yig'ib majlis qurdi. 1398-yil 17-dekabr kuni ul zot otga mindi va qo'shinni safladi. Asosiy otlig qo'shin markazga tizildi. Uning oldida ilg'or qism-jangni boshlab beruvchilar, orasida esa jangni boshlab beruvchilar, orqasida esa qarorgoh bilan zaxira askarlar joylashtirilgan. Buyum Temur qanotlarga ham e'tibor berdi. Ikkala tomonga alohida bo'limalardan tashkil topgan otlig jangchi qismlardan-qanbullarni safladi. Odatda markaziy qo'shin asosiy jangni olib borar, qanbullar esa dushmanning

o'ng va chap qanotini yorib kirishga va aylanib o'tib orqadan zarba berishga urinadilar. Qanbullar eng botir va tajribali jangchilar edi. O'ng qanotni shahzoda Pir Muhammad, shahzoda Sulaymonshoh va boshqa amirlar, chap qanotni shahzoda Sulton Husayn, shahzoda Xalil Sulton, Jahonshoh va boshqa amirlar, ilg'or qismni shahzoda Rustam amir Shayx Nuriddin, amir Shoh Malik, Ollohdod va boshqa amirlar janggi soldilar. Sohibqiron jangning markazida turdi

Amir Temurning 7 yillik yurishi chog'ida Amir Shohmalik Sohibqironning eng ishonchli kishilaridan sanalgan. Sulton Boyazid bilan jangda Shohmalik nomdor no'yon sifatida lashkarning markaziy (qo'l) qismiga belgilangan. Amir Temur O'tror shahrida vafot qilgan paytida Shohmalik uning yonida bo'lgan va oxirgi vasiyatlari, jumladan, Pirmuhammadni valiahd qilgani haqidagi vasiyatni bevosita eshitgan. Sohibqironning jasadi joylashgan tobut, oilasi, nevaralarini O'trordan Samarqandga olib kelishda bosh bo'lgan.

Amir Temurning vafotidan so'ng, Samarqand taxtini Xalil Sulton egallagach, Shohmalik Mirzo Shohruxning o'g'illari Ulug'bek va Ibrohim Sultonni olib, dastlab Buxoroga, so'ngra Xurosonga Shohrux xizmatiga borgan. Shohrux Movarounnahrni to'la o'z ixtiyoriga olgach (1409—10), uni Ulug'bekka suvurgol qiladi va u hali yosh bo'lgani sababli, mamlakat ishlarini boshqarib turishga shahrini mutasaddi qilib qoldiradi. Mazkur tadbirdan Ulug'bekning ko'ngliga malollik kelganini bilgan Shohrux (1411 — 12) shahrini Xurosonga chaqirib oladi.

Keyingi 1405—13 yillar davomida Shohmalik Shohruxning topshirig'i bilan Xuroson, Mozandaron, Movarounnahr, Xorazmga harbiy yurishlarda, isyonlarni bostirishda qatnashgan. Shohrux (1412— 13) Xorazmni Shohmalikka butkul (darbasta) suvurg'ol qiladi. Shohmalik Xorazm hokimi bo'lganidan keyin ham Shohruxning g'arbiy viloyatlarga yurishlarida ishtirok etgan.

Amir Shohmalik madrasasi 1405-1411-yillarda Mirzo Ulug'bek voyaga yetgunga qadar unga vasiylik va Movarounnahrda hukmronlik qilgan tog'asi Amir Shohmalik tomonidan Samarqandda bunyod etilgan.

Amir Shohmalikning Temuriylar davri xalqaro elchilik munosabatlarida ham ma'lum hissasi bor. 1419—22 yillarda Temuriylardan Xitoyga borib kelgan katta elchilik safarida Xorazmdan shahrining O'rduvon ismli elchisi ham qatnashgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'daynida keltirilishicha, Amir Temur o'z vaqtida shahrining sadoqatli buyuk xizmatlarini qadrlab, juda ko'p joylarni unga suvurg'ol tarzida in'om qilgan. Shohmalik o'ziga tegishli mulklarda madrasalar, xonaqohlar, masjidlar, rabotlar va hovuzlar kabi ko'p xayrli qurilishlarni amalga oshirgan, ularga ekinzorlar barpo etib vaqflar belgilagan.

Shohmalik vafot qilgach, uning jasadini Xorazmdan Mashhadga keltirib, Imom Rizoning qabri yoniga o'zi qurdirgan maqbaraga dafn qilishgan.

Reference

1. Azamat Ziyo "O'zbek davlatchiligi tarixi". Toshkent-2000.
2. A. Muhammadjonov "O'zbekiston tarixi". Toshkent-2017.
3. Ozod Mo'min. "Amir Temur yoquti". "Sharq yulduzi" jurnali. 1991-yil.
4. Turg'un Fayziyev. "Temuriylar shajarasi". Toshkent-1995.5.Temuriylar bunyodkorligi davr manbalarida. Toshkent-1997.